

# SAID AHMADNING “SAROB” HIKOYASIDA MILLIY KOLORIT TASVIRI

*Hamraeva Mohira Ummatovna,  
JDPU tadqiqotchisi*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Said Ahmadning “Sarob” hikoyasida milliy koloritning badiiy ifodalanish xususiyatlari tahlil qilingan. Asarda milliy muhit, milliy xarakter, xalqona til, urf-odat va an’analar, milliy qadriyatlar hamda badiiy detallar tizimi orqali o‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy qiyofasi qanday yaratilgani yoritiladi. Shuningdek, milliy koloritning syujet va kompozitsiya, obrazlar tizimi hamda psixologik tasvir bilan o‘zaro bog‘liqligi ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tarixiy-tipologik va germenevtik usullardan foydalanildi. Tahlil natijalari Said Ahmad milliylikni tashqi etnografik belgilar bilan cheklemasdan, uni inson ruhiyati va axloqiy tanlovi bilan uyg‘un holda badiylashtirganini ko‘rsatadi.*

*Kalit so‘zlar: milliy kolorit, milliy xarakter, milliy muhit, xalqona til, urf-odat, milliy qadriyat, psixologizm, badiiy detal, ramz, Said Ahmad.*

*Аннотация: В статье анализируются особенности художественного воплощения национального колорита в повести «Сароб» («Мираж») выдающегося представителя узбекской литературы Саида Ахмада. Рассматривается, как через национальную среду, национальный характер, народный язык, обычаи и традиции, национальные ценности и систему художественных деталей формируется духовно-нравственный облик узбекского народа. Кроме того, на научно-теоретической основе анализируется взаимосвязь национального колорита с сюжетом и композицией, системой образов и психологической характеристикой персонажей. В исследовании применялись сравнительно-аналитический, историко-типологический и герменевтический методы. Результаты анализа свидетельствуют о том, что Саид Ахмад художественно воплотил национальное начало, не ограничиваясь лишь внешними этнографическими признаками, а гармонично сочетая его с духовностью человека и его нравственным выбором.*

*Ключевые слова: национальный колорит, национальный характер, национальная среда, народный язык, традиция, национальная ценность, психологизм, художественная детал, символ, Саид Ахмад.*

*Abstract: This article examines the artistic expression of national color in the short story Sarob by the prominent Uzbek writer Said Ahmad. The study analyzes how the author reveals the spiritual world, moral values, and national mentality of the Uzbek people through national setting, character portrayal, folk language, customs, traditions, and artistic details. It also explores the relationship between national color and the plot, composition, characterization, and psychological depiction of the story. Comparative, historical-typological, and hermeneutic methods are employed in the research. The study concludes that Said Ahmad presents national identity not merely through ethnographic elements but primarily through the inner world, moral choices, and worldview of his characters.*

*Keywords: national color, national character, folk language, traditions, artistic detail, psychology, symbolism, Uzbek prose.*

**KIRISH.** Said Ahmadning “Sarob” hikoyasi stalincha qatag‘on, qamoq lagerlari hayoti va inson fojiasi emas, balki inson ruhiyati orqali, nohaq hukmlar kabi tarixiy voqealar ko‘rsatishi

bilan ahamiyatlidir. Shu bois asar tarixiy voqelik bilan birga chuqur psixologik mazmun ham kasb etadi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, muallif asosiy e'tiborni siyosiy voqealarga emas, balki o'zbek insonlari taqdiri, milliy qadriyatlari va ma'naviyatiga ko'rsatgan ta'siriga qaratgan deyish mumkin. Darhaqiqat, "Sarob" hikoyasida milliy muhit, xalqona til, milliy xarakter va ma'naviy qadriyatlarni yaxlit badiiy tizim. Bu esa asarning realistik tabiati va milliy o'ziga xosligini belgilaydi. Hikoya qahramoni Olimjon domla – iymonli, sabrli, ma'rifatli o'zbek ziyolisi. Adib uning shaxsiy fazilatlarini orqali o'zbek ziyolilariga xos ma'naviy kamolot, ilmparvarlik va milliy merosga hurmat kabi qadriyatlarni yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etilgan. Bu jihat asarda milliy koloritning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lganligini quyda ko'rib chiqamiz.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Adabiyotshunoslikda milliy kolorit muayyan xalq hayotiga xos turmush tarzi, urf-odatlar, an'analar, til xususiyatlari, ma'naviy qadriyatlar va milliy psixologiyaning badiiy asarda o'z ifodasini topishini anglatadi. Endi kolorit so'zining lug'aviy ma'osiga kelsak, "Milliy kolorit (lotincha color – rang, bo'yoq) – biror xalqqa, millatga xos bo'lgan o'ziga xoslik, urf-odat, mentalitet, turmush tarzi va milliy xususiyatlarning badiiy asar yoki san'at asarida yorqin aks etishi"[1;192] hisoblanib, badiiy asarda muayyan xalqning milliy hayoti, urf-odatlar, an'analari, tili, turmush tarzi va ma'naviy dunyosiga xos belgilarning badiiy yaxlitlikda aks etishi, ishonchliligi va hayotiylikni ta'minlovchi muhim estetik omildir. "Kolorit badiiy asarda tasvirlangan o'ziga xos xususiyatlar, urf-odatlar va qiliqlar" [1;145] hisoblanib, badiiy asarda muayyan muhit, davr yoki millatga xos xususiyatlarning umumiy badiiy tusi va o'ziga xosligi bo'lib, milliy kolorit muayyan millatning milliy hayotini badiiy jihatdan ishonchli va ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Demak, milliy kolorit tashqi etnografik belgilar yig'indisi bo'lsa, milliylik faqat libos, taom yoki marosimlar tasviri bilan cheklansa, asarning milliy ruhi to'liq ochilmaydi, shu bois milliy kolorit hikoyada shunchaki tashqi bezak emas, balki g'oyaviy-estetik vazifani bajarish kerak. "Sarob" hikoyasi adib mahorati tufayli mana shu vazifani to'liq bajargan. Ya'ni, hikoyada qahramonlar milliy o'zligi ochilgan, voqealar hayotiylik, xalq ma'naviyati, milliy qadriyatlarning totalitar mafkuradan ustun ekanligi yozuvchi tomonidan mohirona tasvirlangan.

Ma'lumki, milliy koloritning haqiqiy mezoni – qahramonlarning fikrlash tarzi, hayotga munosabati, axloqiy qadriyatlari va milliy tafakkurining badiiy ifodasidir. Bu haqida adabiyotshunos Umarali Normatov Said Ahmad ijodini tahlil qilar ekan, adibning xalq hayotini chuqur bilishi va milliy xarakterni tabiiy yaratish mahoratini uning ijodining yetakchi xususiyati sifatida baholaydi. Olimning fikricha, Said Ahmad qahramonlari milliy muhitdan ajralgan holda emas, aynan shu muhit bag'rida shakllangan shaxslar sifatida gavdalanadi[4]. Ibrohim G'afurov esa milliylikning asosiy mezoni inson qalbi ekanini ta'kidlab, haqiqiy badiiylik xalq ruhiyatining chuqur his etilishi bilan belgilanishini qayd etadi[5]. Bu qarashlar "Sarob" hikoyasini tahlil qilishda ham muhim nazariy asos vazifasini o'taydi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Milliy kolorit quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi: milliy muhit, milliy xarakter, xalqona til va nutq madaniyati, urf-odat va an'analar, milliy psixologiya, xalq og'zaki ijodi elementlari, badiiy detallar va ramzlar. Bu elementlar o'zaro uyg'unlashgandagina asarda milliylikning yaxlit manzarasi yuzaga keladi.

"Sarob" hikoyasida milliy kolorit voqealarning yuqorida qayd etganimizdek, tashqi bezak emas, balki asarning ichki mazmunini tashkil etuvchi poetik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi qahramonlarning ruhiy kechinmalari, hayotiy tanlovlari va ijtimoiy munosabatlarini milliy muhit bilan uzviy bog'liq holda tasvirlaydi. Asarda qishloq muhiti, mahalla hayoti, mehnat jarayonlari, oilaviy munosabatlar va xalqona muloqot uslubi voqealarning tabiiy rivojini ta'minlaydi. Bu holat milliy muhitni sun'iy bezak emas, balki syujetning tarkibiy qismiga

aylantiradi. Said Ahmad nasrining muhim xususiyatlaridan biri voqealar kechadigan muhit bilan inson ruhiyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yarata olishidir. "Sarob" hikoyasida ham milliy muhit faqat voqealar kechadigan makon sifatida emas, balki qahramonlarning fikrlashi, his qilishi va hayotiy qarorlarini belgilaydigan ma'naviy makon sifatida namoyon bo'ladi.

Hikoya xalqona til va milliy koloritning yorqin namunasi bo'lgan buxorolik 100 yil yashagan temirchi Usto Amin boboning o'gitini iqtibos qilib olish bilan boshlangan: "Ota qarg'ishi misoli o'q – u oxiratda emas, shu dunyoning o'zida nishonga tegadi"[6;7]. Ko'rinib turibdiki, Said Ahmad hikoya boshlanmasidayoq xalqona tilning badiiy imkoniyatlaridan unumli foydalana olgan. Hikmat xalq og'zaki ijodiga xos ixchamlik, obrazlilik va hayotiy xulosani mujassam etgan. Avvalo, "o'q" obrazi xalq tafakkurida juda ta'sirchan ramz hisoblanadi. O'q nishonga albatta yetib boradigan kuch sifatida tasavvur qilinadi. Shuning uchun ota qarg'ishining "o'q"qa qiyoslanishi uning muqarrarliligi va qaytarib bo'lmas oqibatini kuchli ta'sir bilan ifodalaydi. Ikkinchidan, "shu dunyoning o'zida nishonga tegadi" degan fikr xalqning sabab va oqibat haqidagi axloqiy qarashini aks ettiradi. Bu yerda jazo faqat oxiratda emas, balki insonning bu dunyodagi hayotida ham namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Bunday qarash o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy dunyoqarashida keng tarqalgan. Uchinchidan, mazkur hikmatning Usto Amin bobo nomidan keltirilishi ham bejiz emas. Xalq an'anasida uzoq umr ko'rgan, hayotiy tajribaga ega qariyalar ma'naviy hikmat sohiblari sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun ularning aytgan so'zlari oddiy mulohaza emas, balki xalq tajribasidan o'tgan axloqiy xulosa sifatida qabul qilinadi. Lingvistik jihatdan ham mazkur ibora xalqona tilga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Jumla sodda, qisqa va ta'sirchan qurilgan bo'lib, unda murakkab badiiy bezaklar emas, balki xalq nutqiga xos tabiiylik ustuvor. Ana shu ixchamlik uning ta'sir kuchini oshiradi va o'quvchi xotirasida saqlanib qolishini ta'minlaydi. Shu tariqa, mazkur hikmat nafaqat qahramon nutqini milliyashtiradi, balki asarning ma'naviy g'oyasini ham ochadi. Unda o'zbek xalqining ota-onani e'zozlash, farzandlik burchi, kattalar duosi va qarg'ishining muqaddasligi, axloqiy mas'uliyat kabi milliy qadriyatlari xalqona til vositasida mujassamlashgan. Bu esa milliy koloritning eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Kimsanboy – totalitar mafkura ta'sirida milliy qadriyatlardan uzoqlashgan, ammo hayotining oxirida vijdoni uyg'ongan shaxs. Keyinchalik uning pushaymonligi inson qalbida milliy va diniy tuyg'ular baribir ustun kelishini ko'rsatadi. "Uning otasi Olimjon Raxmonov rayon maorif bo'limining mudiri edi. Tarix bilimdoni bo'lgan bu odamni rayondagi jami tarix o'qituvchilari ustoz deb atardilar. Hatto uyiga ham kelib, undan Turkiston tarixi bo'yicha bilmaganlarini so'rab bilib olardilar. Uning uyida kitob ko'p edi. Alohida bitta uydagi tokchalarga juda noyob kitoblar terib qo'yilgan edi... Amir Temur, Mirzo Bobur, Narshaxiy, Forobiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Najmiddin Kubro, Al-Beruniy, Xoja Ahror, Ahmad Yassaviy kabi allomalarning o'tgan asrlarda xattotlar tomonidan ko'chirilgan noyob qo'lyozmalarini Domla ko'z qorachig'idek asrardi. Kechalari yettinchi lampa yorug'ida tong otguncha mutolaa qilardi" [6;8]. Mazkur parchada milliy muhit avvalo ziyoli oila hayoti va ma'naviy muhit tasviri orqali yaratiladi. Olimjon Raxmonovning xonadon i oddiy uy emas, balki ilm-ma'rifat maskani sifatida gavdalanitiriladi. Uydagi alohida kutubxona, tokchalarga ehtiyotkorlik bilan joylashtirilgan noyob qo'lyozmalar, kitoblarning "ko'z qorachig'idek asralishi" milliy ma'naviy merosga bo'lgan ehtiromni ifoda etadi. Bu badiiy detallar orqali muallif kitobxonlik va ilmga hurmatni o'zbek ziyolilari hayotining ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi. Milliy muhitni shakllantiruvchi muhim omillardan biri – ustozshogird an'anasidir. Rayondagi barcha tarix o'qituvchilarining Olimjon Raxmonovni "ustoz" deb bilishi va murakkab tarixiy masalalar bo'yicha unga murojaat qilishi milliy ta'lim va ma'rifat tizimida ustoz maqomining yuksak ekanini ko'rsatadi. Bu holat o'zbek xalqining ilm sohiblariga hurmat ruhini yorqin ifoda etadi. Hikoyada Olimjon domla vijdonli, iymonli, ilimli, milliy

qadriyatlarga sodiq inson sifatida gavdalanadi. Hikoya parchaga e'tibor qaratmiz: "Ko'pincha Domlaning uyiga kekxa ziyolilar to'planib, tarixda o'tgan o'zbek mutafakkirlari to'g'risida suhbatlar qilishardi. Suhbat o'z-o'zidan ota-bobolari Shahrisabz barloslaridan bo'lgan buyuk shoir Mirzo Abdulqodir Bedilga borib taqalardi. Bedilxonlik boshlanardi, ko'plaishb Bedilning sirru sehriga to'la g'azallarining mag'zini chaqishga kirishib ketardilar. Albatta, Olim domlaning talqinlari hammani lol qoldirardi. O'shanday suhbatlarning birida gap aylanib Fuzuliyning bitta g'azaliga borib qadaldi. Mehmonlardan birov Fuzuliy ham o'zbeklar orasida Navoiy darajasida mashhur ekanini, uning ko'p g'azallari o'zbek hofizlari tomonidan qo'shiq qilib aytilishini gapirib qoldi" [6;8]. Matndan keltirilgan parchadan ayonki, milliy muhit suhbat madaniyati orqali ham ochiladi. Kekxa ziyolilarning muntazam yig'ilib, tarix, adabiyot va falsafa haqida bahs yuritishlari xalqimizdagi ma'rifiy yig'inlar an'anasini namoyon etadi. Bu suhbatlar tasodifiy emas, balki milliy ziyolilik muhitining tabiiy ko'rinishi sifatida berilgan. Suhbat mavzulari Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Xoja Ahror, Ahmad Yassaviy kabi allomalar bilan bog'lanishi milliy tarixiy xotiraning uzluksizligini anglatadi. Muallif milliy muhitni yaratishda Bedilxonlik an'anasini ham muhim badiiy detal sifatida tanlaydi. Mirzo Abdulqodir Bedil g'azallarini birgalikda sharhlash, ularning ma'nosini talqin qilish ziyolilar davrasidagi adabiy muhitning yuksak darajasini ko'rsatadi. Bu milliy adabiy tafakkurning Sharq mumtoz adabiyoti bilan uzviy bog'liqligini anglatadi. Parchada til vositalari ham milliy muhitni kuchaytiradi. "Domla", "ustoz", "bedilxonlik", "xattotlar", "qo'lyozma", "mag'zini chaqish" kabi milliy-madaniy ma'no yuklangan so'z va iboralar xalqona nutq muhitini yaratadi. Ayniqsa, "mag'zini chaqish" iborasi badiiy asarni chuqur anglash ma'nosida qo'llanib, xalqona tafakkurning obrazlilikini namoyon etadi. Shuningdek, Muhammad Fuzuliy g'azallarining o'zbek hofizlari tomonidan qo'shiq qilib ijro etilishi haqidagi mulohaza milliy madaniyatning turkiy adabiy an'analar bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Bu jihat milliy muhitning keng madaniy qamrovga ega ekanini tasdiqlaydi.

– Domla, Fuzuliyning bir g'azali bor, mag'zini sira chaqolmadim. Ko'p bilimdonlardan so'raganimda tayinli bir javob berolmadilar. Shu to'g'rida sizning fikringizni bilmoqchi edim. Olimjon domla narigi xonadan Fuzuliyning devonini olib chiqdi. Ko'zoynak taqib, do'stining tishi o'tmagan o'sha g'azalni topdi. Chiroqqa solib, ikki-uch marta o'kidi.

– Xo'sh, qaysi joyiga tushunmadingiz? – deb so'radi do'stidan.

– Fuzuliy shunday deb yozadi: "G'amlarim shuncha ko'pki, tuyaning ustiga ortsam, zindonga tashlangan kofirlar ozod bo'ladi". Xo'sh, nima uchun ozod bo'ladi?

– Tushunmadim. Domla o'ylanib qoldi. Darhaqiqat, tuyaning ustiga g'am yukini ortsam, nega kofirlar ozod bo'ladi? Domla ko'p o'yladi. Keyin boshini ko'tarib mehmonlarga qaradi.

– Gap bundoq. Bu sirning ma'nisiga yetish uchun Fuzuliy yashagan davrga murojaat qilish kerak. O'sha davrdagi rivoyatlarni, maqolu matallarni, hatto qo'shiqlarni xam bilmoq kerak. Bir rivoyatda odamlar Allohdan, ey tangrim, zindonda yotgan kofirlar qachon ozod qilinadi, deb so'rabdilar. Allox, tuya ignaning teshigidan utgandagina kofirlar ozod qilinadi, deb javob qilgan ekan. Fuzuliy ana shu rivoyatni g'azaliga asos qilib olgan. Ya'ni: "Mening g'amlarim shunchalik ko'pki, tuyaning ustiga ortsam, ko'tarolmay, ozib, ipdek bo'lib qoladi". Ipdek ozib qolgan tuya ignaning teshigidan bemalol o'tishi mumkin. Demak, kofirlar zindondan ozod qilinadi"[6;9]. Ushbu parchada milliy xarakter eng avvalo Olimjon domla obrazi orqali ochiladi. Said Ahmad qahramonning tashqi qiyofasini emas, balki uning ilmga munosabati, fikrlash uslubi va ma'naviy fazilatlarini tasvirlash orqali milliy ziyoli xarakteri yaratadi. Mazkur epizodda Olimjon domla o'zbek ziyolisiga xos bo'lgan kamtarlik, bilimdonlik, mushohadakorlik va ma'naviy mas'uliyat kabi fazilatlarini namoyon etadi. Mehmonning savoliga u darhol javob bermaydi, balki avval



Muhammad Fuzuliy devonini olib chiqib, g'azalni qayta-qayta mutolaa qiladi. Bu holat uning ilmga ehtirom bilan yondashishi va har bir fikrni manbaga tayanib aytishga intilishini ko'rsatadi. Domlaning "Bu sirning ma'nisiga yetish uchun Fuzuliy yashagan davrga murojaat qilish kerak. O'sha davrdagi rivoyatlarni, maqolu matallarni, hatto qo'shiqlarni ham bilmoq kerak", degan mulohazasi uning tafakkurining kengligi va tarixiy-ilmiy yondashuvini ochib beradi. Bu yerda qahramon bir she'rni talqin qilish uchun uning madaniy, tarixiy va folkloriy zaminini hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi. Bu esa milliy ziyoliga xos tahlil madaniyatini namoyon qiladi. Shu bilan birga, Olimjon domla faqat bilimli inson emas, balki ustoz sifatida ham gavdalanadi. U savol beruvchini kamsitmaydi, aksincha, mulohaza yuritish orqali masalaning mohiyatini tushuntiradi. Bu munosabat o'zbek milliy muhitida ustozning ma'naviy yo'lbo'shchi sifatidagi maqomini ifoda etadi. Parchada milliy xarakterning yana bir muhim jihati – mumtoz adabiyot va ma'naviy merosga sadoqatdir. Domla g'azalni tushuntirishda diniy rivoyat, xalq tafakkuri va she'riyatni bir-biri bilan bog'laydi. Demak, uning bilim doirasi faqat adabiyot bilan cheklanmay, tarix, din, xalq og'zaki ijodi va madaniyatni ham qamrab oladi. Bu esa milliy ziyolining qomusiy fikrlash tarzini ko'rsatadi. Muallif qahramonning xarakterini to'g'ridan-to'g'ri ta'riflamaydi, balki uning xatti-harakati, nutqi va fikr yuritish uslubi orqali ochadi. Bu realistik xarakter yaratishning muhim xususiyatidir. Ushbu epizodda Olimjon domla obrazi orqali o'zbek milliy ziyolisi xakteri badiiy jihatdan mukammal gavdalandirilgan. Uning bilimga sadoqati, manbaga tayanish odati, ustozlik madaniyati, mumtoz adabiyot va xalq rivoyatlarini chuqur bilishi milliy xarakterning asosiy belgilarini tashkil etadi.

"Kimsanboyni ikki marta tergovga chaqirib, otasi bilan yuzlashtirdilar. Olimjon domla bu ishlarda o'g'lining ham ko'li borligini bilmasdi. Yuzma-yuz paytida Kimsanboy aytgan gaplarni eshitib, yoqasini ushladi. Tergovchining: "Shu gaplar rostmi? Tasdiqlaysizmi?" degan so'rog'iga javob bermadi. Peshonasiga shapillatib urib: "E-e, attang, attang! – deya o'g'lining betiga qarab: – Iloyo, juvonmarg bo'l! Umring xor-zorlikda o'tsin! – deb yuziga fotiha tortdi" [6;11]. Ushbu parchada xalq og'zaki ijodi elementlari bevosita emas, balki xalqona iboralar, qarg'ish va diniy-axloqiy nutq shakllari orqali namoyon bo'lgan. Muallif milliy nutq madaniyati vositalari orqali qahramonlarning ichki kechinmalari va ruhiy holatini ta'sirchan ochib beradi. Parchadagi xalq og'zaki ijodi elementlari:

1. Qarg'ish (folklorning kichik janri). Parchada Olimjon domlaning: "Iloyo, juvonmarg bo'l! Umring xor-zorlikda o'tsin!" degan so'zlari xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan qarg'ish janrining yorqin namunasidir. Qarg'ish xalq og'zaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri bo'lib, odatda qattiq alam, iztirob yoki adolatsizlikka nisbatan aytilgan la'nat mazmunidagi iboralardan tashkil topadi. Bu yerda otaning qarg'ishi nafaqat g'azab, balki farzandning xiyonatidan tug'ilgan cheksiz dardning ifodasidir.

2. Xalqona nido: Domlaning: "E-e, attang, attang!" deya afsuslanishi xalq nutqida keng qo'llanadigan nido va ehtirosli undov hisoblanadi. Bu ibora orqali qahramonning ruhiy iztirobi, pushaymoni va farzand tarbiyasidagi fojiani his qilishi ta'sirchan ifodalangan.

3. Fotiha tortish: "...deb yuziga fotiha tortdi". Bu ifoda diniy marosim bilan bog'liq bo'lsa-da, xalq turmushida ramziy la'nat va qarg'ish ma'nosida ham qo'llanadi. Bu yerda fotiha duo emas, balki otaning farzandidan butunlay yuz o'g'irganini bildiruvchi xalqona badiiy ifodadir.

4. Xalqona iboralar: Matndagi "yoqasini ushladi" iborasi ham xalq tilidagi barqaror frazeologizm hisoblanadi. U insonning qattiq hayratga tushishi, iztirob chekishi yoki kutish mumkin bo'lmagan holatga duch kelganini anglatadi.

Hikoyadagi Kimsanboy salbiy qahramon bo'lsa-da, uning kechikkan tavgasi va vijdon azobi orqali insonparvarlik g'oyasi yoritiladi. Jumladan, otasidan kechirim so'rashi, Stalin

suratini ko'ksidan olib tashlashni vasiyat qilishi, pushaymonligi, qahramonning ichki ma'naviy uyg'onishini ko'rsatadi.

– Hamqishloq, yaqinda muddatingiz tugab uyga ketasiz, – dedi u past tovushda. – Iltimos, dadam qamoqdan qaytib kelgan bo'lsa, mening uzrimni yetkazing. Gunohini qoni bilan yuvdi, deb ayting. U charchadimi, hartugul, ancha paytgacha indamay yotdi. Navbatchi sanitar, kerakli gapini ayta olmayapti, deb o'ylab bizni xoli qoldirib chiqib ketdi. – Bu dunyoning azoblaridan kutulishimga sanoqli soatlar qolgan. Sizdan o'tinib so'rayman, Shtokmanga ayting, jonim uzilishi bilan tanam sovumay, jasadim qotmay turib ko'ksimdagi Stalin suvratini terim bilan shilib olsin. Fashistlarning konslagerida o'liklarning terisini shilishda Shtokman assistentlik qilgan. Qandoq shilishni yaxshi biladi. U dunyoga ham Stalin bilan ketmay. U bilan bitta qabrda yotgulik qilmasin. Uning bu gaplari iltimos emas, vasiyat edi. – Xotirjam bo'ling, albatta unga aytaman, – deb va'da berdim” [6;14]. Kimsanning Stalin surati bilan qabrga kirmaslik istagi musulmoncha dafn marosimi haqidagi milliy-diniy qarashlarni aks ettiradi. O'zbek xalqida insonning oxiratga pok holda kuzatilishi muhim ma'naviy talab hisoblanadi. Shu bois qahramon o'z tanasidagi mafkuraviy tamg'adan qutulishni xohlaydi. Shuningdek, mazkur parchada o'zbek xalqining urf-odat va an'analari qahramonning so'nggi so'zlari, vasiyati va ota oldidagi ma'naviy mas'uliyati orqali badiiy ifodalangan. Muallif milliy qadriyatlarni qahramonning ruhiy kechinmalari bilan uyg'unlashtirib, insonning o'lim oldidagi ma'naviy poklanish jarayonini ko'rsatadi. Otadan kechirim so'rash an'anasi: “Dadam qamoqdan qaytib kelgan bo'lsa, mening uzrimni yetkazing. Gunohini qoni bilan yuvdi, deb ayting” [6;14], – degan iltimosi o'zbek xalqida ota rizoligini olish, ota oldidagi burchni ado etish kabi qadimiy ma'naviy qadriyatlarni ifodalaydi. Milliy an'analarga ko'ra, farzand uchun ota-ona duosi va kechirimi eng yuksak ne'mat hisoblanadi. Qahramon ham o'lim oldida aynan otasining kechirimiga muhtoj ekanini anglaydi. “Gunohini qoni bilan yuvdi” degan ifoda xalq og'zaki nutqida keng qo'llanadigan axloqiy tushunchadir. Bu yerda inson o'z xatosining jazosini og'ir azob va qurbonlik bilan to'laganini anglatadi. Muallif ushbu parchada milliy urf-odatlarni voqealar tasviri emas, shu xalqona ibora orqali qahramonning chuqur pushaymonini ma'naviy kechinmalari orqali ta'sirchan ifodalaydi. Otadan kechirim so'rash, vasiyat qoldirish, pok holda dafn etilishni istash kabi an'analari insonning milliy o'zligi va diniy e'tiqodi o'lim qarshisida yanada kuchli namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bu jihat asarda totalitar tuzum inson qalbini o'zgartirishi mumkin, ammo uning milliy va ma'naviy ildizlarini butunlay yo'q qila olmasligi haqidagi g'oyani mustahkamlaydi. Muallif xalq og'zaki ijodiga mansub ushbu elementlar orqali: ota va farzand o'rtasidagi ma'naviy fojiani kuchaytiradi, milliy ruh va xalqona nutqni asar tiliga singdiradi, qahramonlarning ichki kechinmalarini tabiiy va ishonarli tarzda ochib beradi, xalqning axloqiy mezonlari – otaga xiyonat, oila sha'ni va vijdon kabi tushunchalarni badiiy jihatdan yoritadi. Bu elementlar asarning milliy ruhini kuchaytiradi, voqealarning ta'sirchanligini oshiradi hamda xalq ma'naviyati va axloqiy qadriyatlarini badiiy jihatdan yoritishga xizmat qiladi.

“Mendan oldin Olimjon domla kelib, murdaga uzoq tikilib o'tirganini, o'pkasini bosolmay o'kirib yig'laganini aytib berishdi. Qaytib chiqqanimda domla eshik kesakisiga boshini tirab, holsiz bir alpozda turardi. – Domla, bir musulmonning bolasi olamdan o'tdi, – dedim. – Shunga janoza o'qitsak bo'larmidi? Domla indamadi. Uzoq sukutdan so'ng: – Unga janoza lozim emas, – dedi. – Ko'krigida kofirning suvrati bor. Endi u bejanoza, bekafan ko'miladi. U shunday dediyu gandarab-gandarab, barak orqasiga o'tib ketdi. “Dohiy” Stalinning jasadini tuproqqa ko'milmadi. Uni ichiga poxol tiqib, mavzoleyga, ustozlari Lenin yoniga yotqizib qo'ydilar. Bu yerda esa u bir xoinning badaniga yopishib, atigi bitta murda arang sig'adigan go'riga sherik bo'lib yotibdi. Shu bilan ichimizdan chiqqan xoinning jirkanch umri yakun topdi” [6;15]. Ushbu parchada

o'zbek xalqining urf-odat va an'analari bevosita emas, balki ularning buzilishi va inkor etilishi orqali ochib berilgan. Muallif milliy qadriyatlarni totalitar tuzum mafkurasi bilan to'qnashtirib, xalqning diniy va ma'naviy an'analari qanday poymol qilinganini ta'sirchan tasvirlaydi. O'zbek xalqida va islomiy urf-odatlarda vafot etgan musulmonga janoza o'qish muqaddas farz kifoyadir. Qahramon: "Domla, bir musulmonning bolasi olamdan o'tdi. Shunga janoza o'qitsak bo'larmidi?", deb murojaat qilishi xalqning marhumni diniy rasm-rusumlarga muvofiq oxirgi yo'lga kuzatishga bo'lgan ehtiromini anglatadi. Domlaning: "Unga janoza lozim emas... Endi u bejanoza, bekafan ko'miladi", – deyishi odatiy dafn marosimining amalga oshmasligini ko'rsatadi. Musulmonchilikda marhumni yuvish, kafanlash va janoza o'qish azaliy an'ana hisoblanadi. Bu an'ananing buzilishi asarda katta ma'naviy fojia sifatida talqin qilingan. Olimjon domlaning murdani ko'rib yig'lashi insonning o'limi oldida rahm-shafqat va hurmat tuyg'usini ifoda etadi. Marhumning qilmishi qanchalik og'ir bo'lmasin, uning o'limi inson qalbida iztirob uyg'otadi. Bu holat xalqimizga xos bag'rikenglik va rahmdillik fazilatlarini namoyon etadi. Domlaning: "Ko'kragida kofirning suvrati bor", degan so'zi diniy e'tiqodga asoslangan qadriyatlarni aks ettiradi. Stalin suratining ko'krakka chizilishi insonning ma'naviy tanazzuli va o'z millati hamda dinidan uzoqlashganining ramzi sifatida talqin qilinadi. Muallif milliy urf-odatlarni shunchaki tasvirlab qolmay, ularning buzilishi orqali totalitar tuzumning inson ma'naviyatiga yetkazgan zararini ochib beradi. Janozasiz va bekafan ko'milish motivi milliy va diniy qadriyatlardan mahrumlikning eng yuqori darajasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, Stalin jasadining mavzoleyda saqlanishi bilan xoinning tor qabrga janozasiz ko'milishi o'rtasidagi ziddiyat kuchli ramziy ma'no kasb etadi. Bu muqoyasa soxta "dohiyga" sig'inishning vaqtinchaligini, xalqning asriy urf-odatlari va ma'naviy qadriyatlari esa abadiy ekanini ta'kidlaydi.

XULOSA. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, "Sarob" hikoyasida milliy kolorit xalqona til, urf-odatlar, diniy-ma'naviy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi elementlari, milliy xarakter va tarixiy muhit tasviri orqali yaratilgan. Jumladan, hikoya boshidagi hikmat xalqona tilning shunchaki uslubiy bezagi emas, balki milliy tafakkur, axloqiy qadriyat va xalq hayotiy tajribasini ifoda etuvchi muhim badiiy vosita sifatida milliy koloritni kuchaytirib, asarning g'oyaviy-estetik mazmunini chuqurlashtiradi. Milliy muhit qishloq yoki maishiy manzaralar orqali emas, balki ilm-ma'rifat, kitobxonlik, ustoz-shogird an'anasi, ziyolilar suhbat, mumtoz adabiyotga hurmat va ma'naviy merosga sadoqat Olimjon domla xarakteri vositasi orqali ifoda etilgan. Bu esa Said Ahmadning milliy koloritni faqat tashqi etnografik belgilar bilan emas, balki xalqning ma'naviy hayoti va ziyolilik an'analari orqali ham yuksak badiiy mahorat bilan yaratganini ko'rsatadi. Shuningdek, janoza o'qish, musulmoncha dafn etish, marhumga hurmat ko'rsatish kabi milliy-diniy urf-odatlar asosiy ma'naviy mezon sifatida tasvirlangan. Shuningdek, bu an'analarning buzilishi esa asarda totalitar mafkuraning insonning milliy o'zligi va ma'naviyatiga qarshi qaratilgan fojiaiy ta'sirini yoritishga xizmat qiladi. Said Ahmad ushbu vositalar yordamida o'zbek xalqining ma'naviy qiyofasi, milliy tafakkuri va hayot falsafasini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalaydi. Shu bois "Sarob" nafaqat qatag'on davri haqidagi hikoya, balki milliy o'zlik, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlarni ulug'lovchi muhim badiiy asar sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent.: O'qituvchi, 1979. – 376 b
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010
3. Normatov U. Said Ahmad. Adabiy portret. – Toshkent.: Adabiyot va san'at nashriyoti 1971. –91 b.

4. Normatov U. Xalqning ko'zidagi adib: Said Ahmad 70 yoshda // Sovet O'zbekistoni. □ 1990. □ 19 iyun
5. G'afurov I. Prozaning shoiri: Said Ahmad 60 yoshda // Sharq yulduzi. –1980. – № 6. – B. 166-170.
6. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. III jildlik.I jild. Hikoyalar. – Toshkent.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 2000. – B. 200